



# Milliy madaniyat markazlari.

## Iboralar. Tavsifnomalar.



TILAME



Fan- O‘zbek tili  
O‘qituvchi-  
Kamaliddinova  
Nigora  
Sirajiddinovna

## REJA:

- 1 • Respublika baynalmilal madaniyat markazi
- 2 • Iboralar
- 3 • Yaxshilik nur keltirar
- 4 • Tavsifnama

- Bizda baynalmilal milliy madaniy markaz bormi?
- Ha, bor. Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning tashabbusi bilan 1992-yil mamlakatimizda «Respublika baynalmilal madaniyat markazi» tashkil etildi.
- O‘zbekistonda bunday markazlar ko‘pmi?
- O‘zbekistonda millat va elatlarning madaniy markazi bugungi kunda 137 taga yetgan.
- Ha, rost aytasan, O‘zbekistonning millatlararo munosabatlarni mustah- kamlash borasida katta tajribasi butun dunyoda keng e’tirof etilmoqda, ko‘plab mamlakatlar uchun namuna bo‘lib xizmat qilmoqda.

-Turli millat vakillari O‘zbekistonda tinch, totuv, farovon va baxtli yashab kelmoqdalar. Bu muqaddas Vatanda har bir inson millati, dini va tilidan qat’i nazar mehnat qilsa, xalqimiz uni ardoqlaydi.





## Respublika baynalmilal madaniyat markazi

**1992-yil 13-yanvar Toshkentda Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil qilindi.** Respublika baynalmilal madaniyat markazi millatlararo munosabatlar, O'zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millat va elatlar vakillarining totuvligi va hamkorligini ta'minlaydi. Ularning o'ziga xos madaniyatlari va ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash sohasidagi siyosatni amalga oshirishda davlat organlariga va jamoat tashkilotlariga ko'maklashuvchi mustaqil muassasa hisoblanadi.



TIIAME



Mazkur markazning asosiy vazifasi millatlararo totuvlik qaror topishiga yo‘naltirilgan ijtimoiy tashabbuslarni rag‘batlantirish, muvofiqlashtirish va taqdirlash, millatlararo madaniyatini munosabatlar rivojlantirishdan iborat.

Markaz O‘zbekiston Respublikasida yashovchi turli millat va elatlar vakillarining o‘ziga xos milliy an’analari, urf-odatlari va rasm-rusumlarini tiklaydi va rivojlantiradi.

Lug‘at	
<b>baynalmilal</b> - интернациональный	<b>qadriyat</b> - ценность
<b>munosabat</b> - отношение	<b>muvoifiqlashtirish</b> - приводить в
<b>hamkorlik</b> - сотрудничество	соответствие

## Matn yuzasidan savollar:

1. Baynalmilal madaniyat markazi qanday muassasa hisoblanadi?
2. Madaniyat markazi qanday ishlar bilan shug‘ullanadi?





[www.uza.uz](http://www.uza.uz)



TIIAME

## Bilib oling!

Ma’nosi bir so‘zga teng keladigan ikki va undan ortiq so‘zlar yig‘indisi ko‘chma ma’noda kelsa *ibora* deyiladi.

Iboralar gap tarkibida yaxlit holda bitta so‘roqqa javob bo‘ladi va bitta gap bo‘lagi vazifasida keladi. Iboralar nutqni ta’sirchan, jozibali qiladi.

*Masalan: qulog'i ding bo'lmoq — hushyor bo'lmoq, qovog'idan qor yog'di - xafa bo'ldi.*

## 1-mashq. Gaplarni yozing. Iboralarni topib mazmunini izohlang.

1. Hoshimjonning shundan keyin burni osmonga ko‘tarildi. 2. Bolalar bog‘ni vaqtida tozalashga bel bog‘ladilar. 3. Farzandining yomon xulqi ota-onaning boshini bukdi. 4. Karima xola o‘ziga bino qo‘ygan bu yigitga uzoqdan qarab turardi. 5. Sobiq direktor otdan tushsa ham, egardan tushmas edi. 6. Kechagi voqeadan bolalarning dami ichida edi. 7. Ko‘chamiz bolalari bugungi g‘alabadan do‘ppisini osmonga otdi. 8. Ikkala dugonaning fikrlari bir joydan chiqdi.





**2-mashq.** Gaplarni o'qing.  
Iboralarni topib yozing,  
mazmunini izohlang.


1. Singlim labi labiga tegmay, kelgan mehmonlarga gap bermay faqat o'zi gapirdi. 2. U sahnaga chiqishdan oldin o'zini qo'lga oldi. 3. Bo'lib o'tgan voqealarni qor bosdi. 4. Uni ko'rib o'zini yo'qotib qo'ydi. 5. Yulduz qalbi pok, qo'li ochiq qiz. 6. Salimning ko'chaga chiqishga oyog'i tortmadi. 7. Opa-singilning oralaridan qil ham o'tmas edi. 8. O'rtoq, gapni rosa olib qochasan-da. 9. Atlas matolarimizdan mehmonlarning ko'zlar qamashdi.



TIIAME

**2-mashq.** Chap ustunda berilgan iboralarning mazmunini o‘ng ustunga yozing.

yeng ichida	
tepa sochi tikka bo‘ldi	
qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqarib qo‘ydi	
tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi	
yulduzni benarvon uradi	
yuragiga qil sig‘maydi	
qildan qiyiq axtarib	



TIIAME



## **1-topshiriq. Maqollarni ko‘chiring va mazmunini tushuntiring.**

1. Yaxshilik nur keltirar,  
yomonlik - zulmat.
2. Yaxshilik qilmasang,  
yomonlik ham qilma.
3. Yaxshidan ot qoladi,  
yomondan - dod.
4. Yaxshi bo‘lsang yasharsan,  
nasibangni osharsan.
5. Yaxshilik qilsang yashir,  
yaxshilik ko‘rsang oshir.  
Yaxshidan bog‘ qolar.



TIIAME



### 3-mashq. Gaplarni o‘qing, iboralarni topib yozing.

Nosir bobo charchagan ekan, shekilli, ko‘zi ilindi. 2. Ona farzandiga ichi achib, ko‘nglingni buzma, hammasi yaxshi bo‘ladi, dedi. 3. Bolaning eshitgan gaplari u qulog‘idan kirib, bu qulog‘idan chiqib ketdi. 4. O‘quvchi masalani ishlashda ancha bosh qotirdi. 5. Sinf rahbariga voqeani bir boshdan gapirishdi. 6. Arpasini xom o‘rdimmi, xafa bo‘ladi, - dedi bola.



TIIAME

A portrait of a man with a beard and a black cap, wearing a white shirt, sitting in front of a bookshelf filled with books. To his left is a graphic element with the text "YAXSHILIK QARZDIR" and the "Ilm-Ziyo" logo.



**4-mashq.** Nuqtalar o‘rniga mazmuniga mos so‘zlarni qo‘yib yozing. Mazmunini izohlang.

1. ..... bilan ikki quyonni urdi. 2. Musobaqada o‘quvchilar ..... bo‘ldilar. 3. ..... kelsa ham to‘g‘ri gapiradi. 4. Bolalarning bog‘da ..... ishi yetibdi. 5. Kampirning ..... yetganda, bir piyola suv beradigan odami yo‘q edi. 6. Bolalar ..... darsga sho‘ng‘ib ketishdi.

*Foydalanish uchun so‘z birikmalari:* bir jon-u bir tan, boshdan oshib, boshiga qilich, boshi yostiqqa, boshi bilan, bir o‘q.



## Bilib oling!

*Tavsifnomalar* biror shaxsni tafsiflashga qaratilgan hujjatdir. Ushbu hujjat ishga, o‘qishga kirish vaqtida III shaxs tilidan aniq ma’lumotlar asosida xolis yoziladi. Unda tafsifnomalar berilayotgan shaxsning yoshi, darajasi, o‘qiyotgan yoki ishlayotgan joyida qanday faoliyat yuritayotgani, ish va o‘qishda erishgan yutuqlari, mas’uliyatliligi, insoniy sifatlari, atrofdagilarga munosabati, oilaviy holati haqida ma’lumot beriladi. Tafsifnomalar boshqa muassasa yoki korxonaga berilsa, albatta, rasmiy ravishda tasdiqlab yuboriladigan hujjat hisoblanadi.



ТИПАМЕ

### Кушкаров Сапарбай Нурбаевич га ТАВСИФНОМА

Toшкент шахар Юнусобод тумани “Турон” махалласи худудидаги В.Малисов кучаси, 1-й, 2/3 хонадонлар нотураг жойга утказилиб, шу манзилда 2003 йилдан бери “Табобат маркази” фаолият курсатмокда.

“Табобат маркази” беромларни кабул килаётган Суфи-табиб С.Н.Кушкаровни “Турон” махалласи фаоллари ва фукаролари, шу жумладан юкорида курсатилган 9-каватли уйда яшовчилар хам яхши танишиади.

“Табобат маркази”да ахолини кабул килиш учун яратилган шароитлар, Суфи-табиб С.Н.Кушкаров ва марказ ходимларини муомалалари, ташкил этилган иш тартиби хурматта сазовор.

Шу кунгача “Турон” махалласига марказ фаолияти юзасидан биронта одам норозилик билдиримаган ва шикоят кильмаган. Марказ кенг куламда хайрла ишларини олиб боради. Шу кунгача марказ жойлашган уйни томини, лифтини, совук сув босимини юкори каватларга кутарип берадиган насосни, уй йулакларини таъмирлаш ишларини бажарилишида доимий равишда хомийлик ёрдамини берип келмокда. Шу уйда яшайдиган ахолига тиббий хизмат ва дори –дармонлар 50% чегирмалар билан берилади, ижтимоий химояга мухтояжларга тиббий ёрдам белуп курсатилади.

Бундан ташкири марказ “Навруз” ва “Мустакиллик” байрамларини нишонлашда хар йили маҳаллагга хомийлик ёрдамини беради.

Юкорида курсатилган ишлар шахсан суфи-табиб С.Н.Кушкаров бошлилигига хал этилади ва уни бағри кенг, барчага баробар инсон сифатида тавсифлайди.

“Турон” махалласи ва марказ жойлашган уй ахолиси Суфи-табиб С.Н.Кушкаров олиб бораётган иш фаолиятидан мамнунлигини билдиради.

Тавсифнома суралган жойга берилди.

“Турон” махалласи фукаролар ишнин раёндо  
“TURON”  
МАХАЛЛА  
ФУКАРОЛАР  
ИШЛАНУЧЧА  
Д.Р.Аззамова

М.С. Камалова

В.Малисов кучаси, 1-й башкорт  
Д.Р.Аззамова

1045 - 11.10.2026



TIIAME

Toshkent shahri, Shayxontohur tumanidagi 40-maktabning 11-sinf o‘quvchisi, 2001-yilda tug‘ilgan, millati o‘zbek Vohidova Dilnozaga

## **Tavsifnoma**

Vohidova Dilnoza 2008-yilda 1-sinfga qabul qilingan. Maktabda o‘qish davomida u barcha fanlardan a’lo baholarga o‘qimoqda, o‘zini har tomonla- ma bilimli, harakatchan, intiluvchan o‘quvchi sifatida ko‘rsatdi.

Vohidova Dilnoza har yili o‘tkazib kelinayotgan umumta’lim fanlari bo‘yicha Respublika olimpiadasining g‘olibi hisoblanadi. Bugungi kungacha maktabda o‘tkazib kelinayotgan ko‘rik-tanlovlarda faol ishtirok etadi. Shu bilan birga Vohidova Dilnoza ijodkor o‘quvchi hisoblanadi. Uning «Izlanish va ijod», «Gulshan» nomli to‘plamlari chop etilgan.



Vohidova Dilnoza jamoa ishlarida ham faol ishtirok etadi. Sinfdoshlari bilan xushmuomala, ochiq ko‘ngilli, odobli va intizomli o‘quvchi. O‘tgan davr mobaynida sababsiz dars qoldirmagan, ustozlariga hamisha hurmat-e’tiborli. Bilimlarini oshirib borib, o‘z ustida tinmay izlanadi, qo‘srimcha tayyorlov kurslariga, iqtidorli o‘quvchilar guruhlari bilan o‘tkaziladigan qo‘srimcha mashg‘ulotlarga muntazam qatnashadi.

Tavsifnomma so‘ralgan joyga taqdim etish uchun berildi.

Guruh rahbari \_\_\_\_\_ T. T. Ikromova

Sana

muhr

**Uy vazifasi.** Boshi osmonga yetmoq, burni ko‘tarilmoq, qovog‘idan qor yog‘moq, tepa sochi tikka bo‘lmoq iboralarining ma’nolarini yozing.



TIIAME

E‘tiboringiz uchun  
rahmat!